

MURDANI EKSGUMATSIYA QILISH HAQIDA AYRIM FIKR VA MULOHAZALAR

Ochilova Sevinch Rustam qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kunduzgi ta'lim "Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati" mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan 1-o'quv kursi 109-guruh kursanti

Annotatsiya: Mazkur maqola murdani ekskumatsiya qilish tergov harakati to'g'risida yozilgan bo'lib, ushbu tergov harakatining vujudga kelishidan boshlab bugungi kungacha bo'lgan davri hamda bu tergov harakatiga bo'lgan zaruriyat, shuningdek uni rivojlantirishga qaratilgan takliflar keltirilgan

Kalit so'z: murda, ekskumatsiya qilish, tergov harakati, ko'zdan kechirish, tanib olish, ekspertiza.

Аннотация: В данной статье речь идет о следственном действии по эксгумации трупа, представлен период от возникновения данного следственного действия до наших дней, необходимость проведения данного следственного действия, а также предложения по его развитию.

Ключевые слова: труп, эксгумация, следственное действие, осмотр, опознание, экспертиза.

Abstract: This article is about the investigative action of exhuming a corpse, and presents the period from the emergence of this investigative action to the present day, the need for this investigative action, as well as proposals for its development.

Keywords: corpse, exhumation, investigative action, examination, identification, examination.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual qonunchiligida dalillarni to'plash, tekshirish, baholash, umumiy aytganda isbot qilish jarayoni tergov harakatlari orqali amalga oshiriladi. Mazkur tergov harakatlaridan biri sifatida murdani ekskumatsiya qilish tergov harakatini aytishimiz mumkin. Murdani ekskumatsiya qilish deganda vafot etgan shaxsni ko'zdan kechirish, tanib olish uchun ko'rsatish, tekshirish va ekspertizaga namunalar olish uchun murdani qabridan qazib olish tushuniladi.

Ekskumatsiya - (Exhumation lot. - ex -humatio - jasadni yerdan olib chiqish, ex - dan - va humus- yer, tuproq) allaqachon ko'milgan murdani tekshirish yoki o'lim sabablarini aniqlash yoki jasadning shaxsini aniqlash uchun murdalarni yorib ko'rish demakdir. Agar ushbu tergov harakatining o'tmishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qadimda jasadni tekshirish ya'ni ekskumatsiya qilish deyarli sodir bo'lmagan. Chunki o'sha davrda insonlar agar vaqt o'tishi bilan qabr ochilsa, murdalar kattalashishi mumkinligiga, turli xil noxushliklar yuz berishiga va hatto ular tirilib qaytishi mumkinligiga juda qattiq ishonishgan. Faqatgina,

o'g'rilar va talonchilar tomonidan mo'maygina daromad topish ilinjida ushbu harakat amalga oshirilgan. Ammo, vaqt o'tishi bilan murdalarning shaxsiga aniqlik kiritish zarurati yuzaga keladi. XIX asrning o'rtalariga kelib Rossiyada dastlabki eksqumatsiya harakatlari amalga oshirila boshlaydi. Lekin "Eksqumatsiya" atamasi jinoyat protsessida umuman qo'llanilmaganligi sababli, mazkur harakatga nisbatan "O'lik tanani ko'rikdan o'tkazish" atamasi qo'llanilgan. 1864-yilda qabul qilingan Jinoyat ishlari bo'yicha nizomning 346-347-moddalarida eksqumatsiya quyidagilar bayon etiladi: "O'lik murdani qayta ko'rikdan o'tkazishda sud tergovchisi taklif etilgan shifokorlarga qayta ko'rikdan o'tish maqsadi, bayonnoma va dalolatnomani ma'lum qiladi. Dastlabki ko'zdan kechirish natijalari va jasadning yerda qancha vaqt bo'lganligi aniqlanadi. Shaxsni tasdiqlash uchun ruhoniy va boshqa shaxslar, dafn marosimida ishtirok etganlar, qayta tibbiy ko'rikdan o'tkazish uchun esa dastlabki tekshiruvni amalga oshirgan shifokor taklif etiladi". Rossiyada eksqumatsiya tergov harakati amalga oshirilgan misollardan biri 2011-yilda Permda qo'zg'atilgan A.I. Ryabinin qotilligi haqidagi ishdir. Surishtiruv davomida tergovchilar marhumning jasadi gumonlanuvchilardan birining hovlisidagi hammom poli ostiga ko'milgani haqida ma'lumot olishgan. Ushbu ma'lumotlarning to'g'riligini isbotlash maqsadida eksqumatsiya o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilindi va u qonunning barcha talablarini hisobga olgan holda amalga oshirildi. Qabr ochilgandan so'ng, ekspertlar tibbiy-kriminalistik ekspertiza o'tkazdilar, uning natijalari ishning keyingi harakatlanishiga asos bo'ldi.

Ma'lumot sifatida, RSFSR qonunchiligida ham eksqumatsiya mustaqil tergov harakati sifatida bayon etilmagan. RSFSRning 1960-yilgi Jinoyat-protsessual kodeksining "Kuzatish" deb nomlangan 180-moddasining ikkinchi qismida zarurat tug'ilganda murdani ko'milgan joyidan chiqarib olish (tergovchining qarori mavjud bo'lganda) to'g'risida qayd etib o'tilgan. Biroq, Rossiya Federatsiyasining amaldagi Jinoyat protsessual kodeksining 160-moddasining 1-qismi hamda 170-moddasining 1.1-qismida murdani eksqumatsiya qilish qarindoshlarining roziligi bo'lmagan taqdirda sudning ruxsati bilan amalga oshirilishi to'g'risida bayon etilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mazkur tergov harakatini o'tkazish zaruriyati to'g'risida so'z yuritadigan bo'lsak, quyidagilarni bayon etish darkor. Jumladan, murdani eksqumatsiya qilish tergov harakati:

- 1) murdani sud-tibbiy yoki patologoanatomik ekspertizasiz ko'mish holati yuzaga kelganda;
- 2) murda zo'rlik ishlatib o'ldirilganda;
- 3) murda birlamchi sud-tibbiy tekshiruvining jiddiy nuqsonlarini, tergov yo'li bilan yoki sud majlisida aniqlangan hamda ishni qiyinlashtiruvchi tergov va sud uchun muhim bo'lgan masalalarni hal etish maqsadida;
- 4) jinoyat ishiga doir yangi holatlar yuzaga kelganda;
- 5) jinoyatchi tomanidan yashirincha topilgan murda topilganda amalga oshiriladi.

Ushbu tergov harakati to'g'risida olim va faylasuflarning fikrlariga yuzlanadigan bo'lsak, dastlab "Eksqumatsiya" tushunchasiga eng to'liq va asosli ta'rifni A.Ye. Kriger bergan bo'lib, u eksqumatsiya deganda "ko'milgan murdani rasmiy dafn etilgan joydan olib

chiqishga qaratilgan, tergovchining qarori (sud ajrimi) bo'yicha ko'milgan murdani ko'zdan kechirish (shu jumladan, qayta ko'rish), tanib olish yoki ekspert identifikatsiyasi, qiyosiy tekshirish uchun namunalar olish, ish bo'yicha holatlarni aniqlash maqsadida ekspert tekshiruv (birlamchi, qo'shimcha, takroriy), shuningdek, ashyoviy dalillarni topish va olishga qaratilgan patologoanatomik tekshiruv uchun amalga oshiriladigan, keyinchalik murdani ko'mishga qaratilgan mustaqil tergov harakati" deb ta'kidlaydi.

Yana bir olim Ye.V. Yegorovning fikriga ko'ra, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 178-moddasi 4-qismiga o'zgartirishlar kiritishni ya'ni "zarurat tug'ilganda, murdani eksqumatsiya qilish va ko'zdan kechirish jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar amalga oshirilishi mumkin"ligini taklif etadi.

Bundan tashqari, V. P. Bojev eksqumatsiyaning maqsadlari sifatida tanib olish uchun ko'rsatishni; ko'zdan kechirishni (birlamchi, takroriy); ekspertiza o'tkazishni (birlamchi, takroriy, qo'shimcha) ko'rsatadi. A. R. Sisenko esa eksqumatsiyaning yangi dalillarni olish; mavjud dalillarni tekshirish va aniqlashtirish; jasadni keyinchalik tanib olish uchun ko'rsatish va uni ekspert tekshiruv jarayonida ishning boshqa holatlarini boshqa vositalar va misollar bilan bilishni ta'minlash kabi maqsadlarini ajratib ko'rsatadi.

Murdani eksqumatsiya qilish tergov harakatining muammolaridan biri marhumning yaqin qarindoshlari yoki qarindoshlarining roziligini olishdir. Murdaning yaqinlari rozilik bermagan taqdirda tergovchi tergov harakatini o'tkazishga ruxsat olish uchun sudga murojaat qilishi qonunda nazarda tutilgan. Bunda tergovchi mazkur tergov harakati marhumning qarindoshlari his-tuyg'ulariga ta'sir etishini, ularga ma'naviy azob berishini inobatga olishi lozim. Ushbu holatda tergovchi oldida nafaqat protsessual, balki marhumning qarindoshlari va yaqinlariga kuchli ruhiy ta'sir ko'rsatadigan eksqumatsiya jarayonining ma'naviy xususiyati muammosi ham mavjud.

Eksqumatsiyani o'tkazishning ikkinchi muammoli jihati eksqumatsiyani o'tkazish vaqti masalasi bilan bog'liq: jinoyat ishi qo'zg'atilishidan oldin yoki keyin. A. N. Ilyashenko va D. N. Lozovskiy ta'kidlaganidek, tergovchining jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar eksqumatsiya o'tkazish imkoniyati yo'qligi uni qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad etish to'g'risida asosli qaror chiqarish imkoniyatidan mahrum qiladi.

Biroq yuqorida aytilgan olim Ye.V. Yegorovning "Murdani eksqumatsiya qilish tergov harakatini jinoyat ishi qo'zg'atilishidan olidin ham amalga oshirish lozim" degan fikri A. N. Ilyashenko va D. N. Lozovskiylarning nazariyalarini inkor etmoqda.

Bu holat yuzsidan so'z borar ekan shuni ta'kidlash joizki, Agar sud tibbiy ekspertizasi uchun murda haqida shubha yoki ehtiyotkorlik mavjud bo'lsa, o'lim tabiiymi yoki jinoyat tufayli sodir bo'ldimi, bu holatni aniqlash uchun eksqumatsiya qilish mumkin. Bu holat jinoyat ishi qo'zg'atilishidan avval o'tkazilishi mumkin, chunki eksqumatsiya orqali o'lim sababini aniqlash yoki yangi dalillar olish mumkin. Jinoyat ishi qo'zg'atilmagan bo'lsa ham, agar tegishli organlar o'limning shubhali holatiga duch kelsa, ular murdani eksqumatsiya qilishni o'tkazishni taklif qilishlari mumkin. Bunday holatda tergov harakatlari, aniqrog'i murdani eksqumatsiya qilish tergov harakati jinoyatni aniqlash yoki o'lim sabablarini o'rganish uchun amalga oshiriladi.

Endi esa murdani eksqumatsiya qilish jarayonini yanada samarali va huquqiy jihatdan aniq tartibga solish uchun ko'plab takliflar mavjud, jumladan eksqumatsiya jarayonini yanada shaffof qilish, aniqrog'i noqonuniy harakatlardan saqlanish uchun jarayonning muayyan qismlarini ommaviy axborot vositalari orqali yoritish zarur.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda, inson huquqlarini va adolatni ta'minlash ahamiyatli bo'lgan bir davrda, tergov harakatlarini amalga oshirishda, jumladan murdani eksqumatsiya qilish jarayonida ishonchli guvohlar ishtirokini ta'minlash, shuningdek, eksqumatsiya va boshqa tergov harakatlarida qatnashayotgan mutaxassislar (advokatlar, ekspertlar) ro'yxatiga yanada ishonchli va malakali shaxslarni jalb qilish, ta'sirchanlik va bosimni oldini olishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi (2024-yil 1-martgacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan). – T.: "Yuridik adabiyotlar Publish", 2024 y.
2. Jinoyat-protsessual huquq: Darslik / Yuridik fanlar doktori, professor M.A. Rajabova tahriri ostida (To'ldirilgan va qayta ishlangan uchinchi nashr). – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. 732 b.
3. Егорова Е.В. Эксгумация: особенности принятия и тактики производства // Российский следователь. №2, 2005. 2с
4. Койсин А.А. Эксгумация трупа – осмотр или вемка? // Сибирский юрид. Вестник. 2010. №1 (48)
5. Кригер А.Е. Эксгумация в системе следственных действий: Учеб. Пособие. Барнуал, 2014.